

2- Mavzu: “Buyuk mehring” she’ri (Nazarmat Egamnazarov)

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: o‘quvchilarni she’r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o‘qishni o‘rgatish.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda o‘z eli va yurtini qadrlash, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish va ularning ishlaridan o‘rnak olish hislarini tarbiyalash.

c) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarining ifodali o‘qish malakalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, og‘zaki nutqini boyitish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: suhbat, tushuntirish, ta’limiy o‘yinlar.

Dars jahozi: rangli rasmlar, tarqatma materiallar, videolavha.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish;
- o‘quvchilarni darsga hozirlash;
- ma’naviyat daqiqasi o‘tkaziladi.

II. Uy vazifasini so‘rash va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – “Yagonadir Vataning sening” matnini o‘quvchilar ifodali o‘qib, mazmunini so‘zlab beradilar. Mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

“Vatan” va “Mustaqillik” so‘zlarining ma’nosini izohlab beriladi.

VATAN

- Arabcha so‘z bo‘lib, “tug‘ilgan makon” degan ma’nioni anglatadi.
- Bizning Vatanimiz mustaqil O‘zbekistondir.

Mustaqillik

- Arabcha so‘z bo‘lib, “tobe va qaram bo‘limgan holat”, “ixtiyori o‘zida” degan ma’nioni anglatadi.
- Biror yurtning boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay, erkin va ozod bo‘lishi mustaqillikdir.

Darslik bilan ishlash.

“Buyuk mehring” she’ri o’quvchilarga o’qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi. Muallif haqida ma’lumot beriladi.

NAZARMAT EGAMNAZAROV

Nazarmat Egamnazarov -shoir, jurnalist, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi. “Yoshlik zavqi”, “Vatan ishqisi”, “Yashil dalalar”, “Sir bo’yi -nur bo’yi”, “Tog’dagi gulxanlar”, “Nay sadosi”, “Shahrimiz bolalari”, “Bahor qo’shig’i”, “Mangu olov” kabi she’riy to’plamlar muallifi. Ko’plab she’rlari qo’shiq bo’lgan. “Yurakdagi o’q” dostoni va “Sayyod jasorati” qissasi ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan.

Lug’at ishi:

Munavvar – nurli, yorug‘

Muazzam azming – ulug‘ qaroring

Madhing – maqtov

Istiqlol – mustaqillik, erk

“Zanjir” usuli.

She’r o’quvchilarga zanjir usulida o’qitiladi.

Dam olish daqiqasi o’tkaziladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslikda berilgan savollar asosida savol-javob o’tkaziladi.

1. She’rdagi misra oxirida takrorlanib kelayotgan so’zlarni belgilang.
2. Misra oxiridagi ohangdosh so’zlarni toping.
3. She’rda qaysi tarixiy shaxslar ismlari keltirilgan?

4. “Jahonda namoyon qudrat-u ko‘rking” satrida shoir aynan qaysi holatlarni nazarda tutgan deb o‘ylaysiz?

5. Mustaqil O‘zbekistonni madh etuvchi qanday so‘zlardan foydalanilgan?

6. She’rga mos kuy topishga harakat qiling.

“Mosini top!” o‘yini.

Darslikda berilgan rasmlardan she’rga mos bo‘lgani topiladi. O‘quvchilar javoblarini izohlab beradilar.

Guruhlarda ishslash.

O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga nom qo‘yiladi. Har bir guruh “Yurtim uchun yangi g‘oya” mavzusida yangi g‘oya ishlab chiqib, taqdimot qilib beradi.

Mashq daftar bilan ishslash.

1-topshiriq. “Buyuk mehring” she’ridagi quyidagi so‘zlarga ohangdosh so‘zlarni topib yozing.

1. Ko‘rking – **mehring**

2. Joying – **chiroying**

3. Jahonsan – **O‘zbekistonsan**

4. Borim – **diyorum**

2-topshiriq. She’rda qaysi tarixiy shaxslar nomlari keltirilgan? Ular haqida ma’lumotlar yozing.

Amir Temur – sohibqiron, buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi.

Alisher Navoiy – buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi.

3-topshiriq. She’rning oxirgi bandini ko‘chirib yozing. Qofiyadosh so‘zlarning tagiga chizing.

Sen dilda qo‘sishsan, elga nur **madhing**,

O‘zbegin, o‘zligim, hayotim, **borim**,

Jahonga namoyon qudrat-u **ko‘rking**,

Turkiy el so‘zligim, ona **divorim**,

Yerlari muqaddas O‘zbekistonsan.

4-topshiriq. “Ma’nodoshini top!” mashqi. Berilgan so‘zlarning ma’nodoshini topib yozing.



O‘zgalar – begonalar, tabarruk – muqaddas, jahon – dunyo, munavvar – yorug‘, buyuk – tengsiz.

V. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash.

Savol-javob o‘tkaziladi.

- Bugungi darsimiz sizlarga yoqdimi?

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholab, rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. She’rni yod olish.